

# IJTIMOIIY ISHCHINING AXLOQIIY QADRIYATLARI

*Uralova Nigora Islomovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola ijtimoiy ishchining axloqiy qadriyatlarini o'rganishga hamda nazariy tahlil qilishga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar :** *Axloq, odob, etika, qadriyat, ijtimoiy himoya, adolat.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatish kabilar asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, shu o'rinda ijtimoiy ish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, yurtimizda amalga oshirilayogan islohotlarning muvaffaqiyati-fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida ijtimoiy institutlar vazifalarining kengayishi aholining turli qatlamlariga yoshi, jinsi, jismoniy salohiyatini inobatga olgan holda amaliy yordam ko'rsatish tizimi joriy qilinishi keng nomoyon bo'lmoqda. Buning zamirida ijtimoiy ishchining shakllanishi va rivojlanishiga ham boshqa omillar kabi to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy rivojlanishning har bir yangi bosqichi jamiyatda shaxsning takomillashuvi, uning ijtimoiy munosabatlardagi oqilona faoliyati hamda insonning kamolotidan dalolatdir. Shaxs takomillashgan va inson komillashgan sari uning uchun o'z hayoti mazmunli bo'ladi, kasbi esa yuksalib boraveradi. Kasbiy yuksalish esa moddiy va boshqa ayrim qadriyatlar shaklining ma'naviy ahamiyatini oshirib boradi.

Shu o'rinda qadriyat tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, qadriyat bu inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, siafatlar, holatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar masalan; tinchlik, adolat, erkinlik, haqiqat, ijtimoiy tenglik, urf-odat, an'analar qadriyat hisoblanadi. Biror bir kishi bemor bo'lib yotganda uning sog'ligi, yoki bo'lmasa biror bir yurtga dushmanlar hujum qilganda tinchlikning qadri oshib ketadi. Shuningdek qadriyat voqea-hodisalarning, ijtimoiy munosabatlarning, ma'naviy va moddiy boyliklarning qadr-qiymati ahamiyatini ham ifodalaydi. Shuning uchun qadriyatlarga insonning hayoti davomida muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Jamiyatda har bir narsaning o'z o'rni, vazifasi bo'lgani kabi qadriyatlarning ham o'z o'rni ahamiyati mavjud. Qadriyatlar jamiyatning yashash tarzi, davri bilan bog'liq bo'lib, biror bir millatga, biror bir hududga yoki elga xos bo'lishi hamda yillar o'tgani sayin shakllanib borishi mumkin. Qadimda insonlarning qabila urug'chilik aloqalariga asoslangan ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ham odamlarning bir-biriga ko'maklashishi, g'amxo'rlik qilishi, keksalar, nogironlar hamda bolalarga alohida e'tibor qaratilib ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish ham axloqiy bir qadriyat siafatida shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Qadriyatlar milliy, umumbashariy hamda shaxsiy bo'lishi mumkin. Ma'lum bir xalq, millatning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati urf-odat va an'analari bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar hisoblanadi. Jamiyatning muhim tomonlari va qonun-qoidalarini ifodalaydigan qadriyatlar

<sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
[nigora.uralova97@gmail.com](mailto:nigora.uralova97@gmail.com)



umumbashariy qadriyatlar hisoblanadi. Insonning faoliyati, turmush-tarzi, odobi bilan bog'liq qadriyatlar esa shaxsiy qadriyatlardir.

Shu o'rinda qadriyat tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, qadriyat bu inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, siafatlar, holatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar masalan; tinchlik, adolat, erkinlik, haqiqat, ijtimoiy tenglik, urf-odat, an'analar qadriyat hisoblanadi. Biror bir kishi bemor bo'lib yotganda uning sog'ligi, yoki bo'lmasa biror bir yurtga dushmanlar hujum qilganda tinchlikning qadri oshib ketadi. Shuningdek qadriyat voqea-hodisalarning, ijtimoiy munosabatlarning, ma'naviy va moddiy boyliklarning qadr-qiymati ahamiyatini ham ifodalaydi. Shuning uchun qadriyatlarga insonning hayoti davomida muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Jamiyatda har bir narsaning o'z o'rnini, vazifasi bo'lgani kabi qadriyatlarning ham o'z o'rnini ahamiyati mavjud. Qadriyatlar jamiyatning yashash tarzi, davri bilan bog'liq bo'lib, biror bir millatga, biror bir hududga yoki elga xos bo'lishi hamda yillar o'tgani sayin shakllanib borishi mumkin. Qadimda insonlarning qabila urug'chilik aloqalariga asoslangan ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ham odamlarning bir-biriga ko'maklashishi, g'amxo'rlik qilishi, keksalar, nogironlar hamda bolalarga alohida e'tibor qaratilib ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish ham axloqiy bir qadriyat siafatida shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Qadriyatlar milliy, umumbashariy hamda shaxsiy bo'lishi mumkin. Ma'lum bir xalq, millatning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati urf-odat va an'analari bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar hisoblanadi. Jamiyatning muhim tomonlari va qonun-qoidalarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy qadriyatlar hisoblanadi. Insonning faoliyati, turmush-tarzi, odobi bilan bog'liq qadriyatlar esa shaxsiy qadriyatlardir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy ish odamlarga o'z muammolarini hal qilishga yordam beradigan faoliyat sifatida insonparvar kasblardan biri hisoblanib, inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyiliga asoslangan unga ko'ra jamiyatdagi eng oliy qadriyat inson hisoblanadi. Ijtimoiy xodimlarning o'z mijozlariga bo'lgan munosabatini tavsiflovchi axloqiy sifat ham insonparvarlik hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda ijtimoiy ishchining kasbiy qadriyatlarining jamlanmasi insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Azaldan mamlakatimizda qariyalarni qadrlash, hurmat qilish, muhtojlarga yordam ko'rsatish, imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoyalash xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblangan. O'zbekiston mustaqillikga erishgandan buyon ehtiyojmand oilalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, nogironlar kabi barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilib kelingan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Adolatli jamiyat sari. T. „O'zbekiston“ 1998-yil
2. G'aniyeva M.X. Ijtimoiy ish etikasi. Toshkent-2015
3. G'aniyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari-Toshkent. 2012-y
4. Negmatov I. Ijtimoiy ishning etik professional qadriyatlari. O'quv qo'llanma-Samarqand. SamDU 2020
5. <https://library.samdu.uz>
6. <https://mo-gol.ru>
7. <https://qomus-info.uz>

